

YANGIBOYEV Adhambek Esanovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasini tayanch
doktoranti

UMAR NASAFIY TAFSIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТАФСИРА УМАРА НАСАФИ

DISTINCTIVE FEATURES BETWEEN THE TAFSEERS OF UMAR NASAFI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur olim Abu Hafs Umar Nasafiyning tafsir sohasida yozgan “al-Akmal al-atval” va “at-Taysir fi-t-tafsir” nomli ikki asarining o'zaro farqli jihatlari hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, Umar Nasafiy yirik hajmli “al-Akmal al-atval” nomli tafsirida Qur'oni karim oyatlarini sharh qilganidan so'ng, bu borada yana boshqa bir asar yozganligining sababi bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Qur'on, tafsir, ta'vil “ulum al-Qur'on”, hadis, qiroat, mufasssir.

Аннотация: В данной статье рассматривается различия и особенности двух трудов известного ученого Абу Хафса Умара Насафи в области тафсира, «аль-Акмаль аль-атваль» и «ат-Тайсир фи-т-тафсир». Также объясняется причина, по которой Умар Насафи написал еще одну работу по этому поводу после комментирования аяты Корана в крупномасштабном тафсире под названием “Ал-Акмаль аль-атваль”.

Ключевые слова: Коран, тафсир, тавиль, “улум аль-Куран”, хадис, декламация, толкователь Корана (мұфасссир).

Annotation: In this article are being discussed distinguishing aspects and peculiarities of two works of the famous scholar Abu Hafs Umar Nasafi in the field of tafsir, “Al-Akmal al-Atwal” and “at-Taysir fi-t-tafsir”. Also, the reason why Umar Nasafi wrote another work on this topic after commenting on the verses of the Holy Qur'an in his large tafsir Al-Akmal Wa Al-Atwal.

Keywords: Koran, tafsir, tawil, “ulum al-Koran”, hadith, recitation, mufasssir.

KIRISH

Umar Nasafiy islom ilmlaridan, aynan, tafsir sohasida ham ulkan meros qoldirgan. Uning tafsirga doir asarlariga to'xtalinsa Qur'oni karim sharhiga bag'ishlangan to'rtta kitobi borligini aytish mumkin. Ulardan biri “Matla an-nujum va majma al-ulum” to'plami tarkibiga kiruvchi “Kitob al-bayon an g'arib al-Qur'on” (Qur'ondagi tushunish qiyin so'zlarni bayon qiluvchi kitob) nomli asaridir. Qolgan uchta asar esa alohida tafsir kitoblaridir. Ulardan birinchisi “Tafsir an-Nasafiy” nomli Qur'oni karimning fors tilidagi ma'nolar tarjimasidir. Qolgan ikkinchi tafsir “at-Taysir fi-t-tafsir”, uchinchisi esa “al-Akmalu-l-atval” deb nomlanuvchi keng hajmdagi asarlar hisoblanadi. Aynan, mana shu ikki tafsirni farqlab turadigan o'ziga xos omillar nimalardan iboratligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlardandir.

ASOSIY QISM

Umar Nasafiy tafsirlarining o'zaro farqli jihatlari tahliliga kirishishdan oldin, nega ikkita yirik tafsir yozganligi xususida to'xtalib o'tish zarur bo'ladi. Bunga faqat asarni yozishdan maqsadi nima ekanligi, bu jabhada mukammal asar yozganidan so'ng, nega yana Qur'oni karim sharhiga kirishganligi haqida ma'lumotga ega bo'lganda javob topish mumkin bo'ladi. Izlanish mobaynida na tabaqot kitoblarida va na birorta tadqiqotda bu haqida batafsil xulosa berilganligiga guvoh bo'linmadi. Biroq, tadqiqotchi A.Muratov o'z ilmiy ishida Umar Nasafiyning “at-Taysir fi-t-tafsir”da yozgan quyidagi gaplarini keltiradi: “Abu Hafs Nasafiy tafsirning muqaddimasida uning yozilishiga sabab qilib shunday degan: “Allohning quli Umar bin Muhammad an-Nasafiy shunday deydi: (Alloh taolo uning kamchiliklarini kechirsin va oqargan sochlari sababli marhamat aylasin). Ey olimlar jamoasi! Ko'p vaqtlardan beri mendan ilmiy bir xizmat istayotgan ekansiz, Alloh istagingizni bersin, Qur'oni karim tafsirini ta'lif qilishda orzularimizga yetishda menga yengillik bersin. Siz o'qilishi qulay va qisqa, bir qancha go'zal ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan tafsirga muhabbat bilan xohish bildirmoqdasiz. Bu asarni mening tomonimdan yozilishini intizorlik bilan kutmoqdasiz” [3:33].

Demak, Umar Nasafiy “at-Taysir fi-t-tafsir” asarini, avvalo, bir qancha ahli ilmlarning iltimosiga

binoan, qolaversa, uni kishilar osonlik bilan o'qib qisqa va mo'jaz jumlar orqali keng ma'nolarni tushina oladigan tarzda yozgan. Umar Nasafiy aytgan ushbu gaplar ham buni qo'llab-quvvatlaydi: "Qattiq istaklaringizdan so'ng, o'zimni erkin sezdim va sizlar uchun kamtarlik hissini tuydim. Murodingizga yetishingiz uchun Alloh taolaga istixora qilib, sizlarga ko'maklashish va xursand bo'lishingiz uchun U zotdan yordam so'radim. Alloh taolodan Shaytonning yomonligidan panoh va himoya berishini tilab un (tafsir yozishlik)ga kirishdim. Alloh valiy va yordamchi bo'lishga kifoyadir"[6:159].

Xuddi shu singari mufassirni "al-Akmal al-atval"ni yozishlikka undagan omil haqida bilish uchun manbaning o'ziga tayanish zarur bo'ladi. Umar Nasafiy tafsirning kirish qismida bu haqda shunday deydi: "Alloh taoloning kitobi farz va sunnat bilan mustaqil bo'lgan barcha shar'iy ilmlar manbaidir. Uni osmonning Amini (Jabroil alayhissalom) yer Amini (Muhammad alayhissalom)ga olib tushgan. Shuning uchun, umrim bo'yi u bilan mashg'ul bo'lib, mo'jaz sharh yozish orqali bor kuchimni sarf etishni maqsadga muvofiq, deb bildim. Bu sharh o'z ichiga tafsir, lug'at e'rob va qiroatlardan iborat go'zal iboralar, zalolat va bid'at ahliga raddiyalar hamda biz zikr qilgan hukmlar, oyatlarning nozil bo'lishiga dalil bo'luvchi ko'plab (oyatlar ma'nolari o'rtasini jamlab ulardan tushunish qiyin bo'lganlarini bayon qiladigan) hadislarni oladi. Shuningdek, salaflarning va ularga ergashgan xalaflarning so'zlarini ham o'zida jamlaydi" [1:1b].

Demak, Umar Nasafiy "al-Akmal al-atval" tafsirini yozishlikni o'ziga maqsad qilib olgan va bu bilan manfaatli ishni amalga oshirishni ko'zlagan. Bundan ko'rinadiki, mufassirni ushbu ikki tafsirni yozishga undagan sabablar ham turlicha ekan.

Tafsirlarni farqlab turadigan asosiy jihatlardan yana biri Umar Nasafiyning asarlar kirish qismini o'ziga xos ikki xil uslub bilan boshlaganligidadir. Misol uchun, "al-Akmal al-atval" asarida to'g'ridan-to'g'ri suralarning tafsiriga kirishmasdan, muqaddimada yigirmadan ortiq Qur'on ilmlarini keltiradi.

Asar basmaladan so'ng, قال الشيخ الامام العلامة المحدث الحافظ نجم الدين ابو حفص عمر بن محمد بن احمد النسفي (Shayx, imom, alloma, muhaddis, hofiz, Najm ad-din Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy aytdi) deb xattotning gapi bilan boshlanadi. So'ngra Umar Nasafiyning Alloh taolaga hamd va

Payg'ambar alayhissalomga salovat aytish bilan boshlangan kirish so'zlari keltiriladi. Ushbu kirish so'zidan mufassirning asarni yozishdagi asosiy maqsadi va unda nimalarga e'tibor qaratganligi to'g'risida ma'lumotlarni olish mumkin. Shuningdek, kirish so'zining oxirida kitobga qanday nom berganligi va uni Allohning roziligi uchun yozganligini aytib shunday deydi: "Uni "al-Akmal al-atval" deb nomladim. Alloh O'zi uchun xolis, marhamati ila menga, ota-onamga va xohlaguvchi kishilarga foydali (asar) qilsin. Albatta, U Zot duolarni eshituvchi, bizga yaqin va ijobat qiluvchidir. Amin" [1:3b].

So'ngra Umar Nasafiy bir qancha Qur'on ilmlariga oid mavzulastirilgan boblar keltiradi. Jumladan:

باب ذكر جمل من فضائل القرآن والترغيب فيه وفضل طالبه وقارئه ومستمعه والعامل به (Qur'on fazilatlarini, o'rganishlikka targ'ib, talab qiluvchi, o'quvchi, eshituvchi va amal qiluvchisining fazli to'g'risidagi bob);

باب كيفية التلاوة لكتاب الله تعالى وما يكره منها وما يحرم (Alloh taoloning kitobini tilovat qilish kayfiyati uning makruh, harom bo'lgan o'rinlar va bu borada ulamolar ixtilofi);

باب تحذير أهل القرآن والعلم من الرياء وغيره (Qur'on va ilm ahlini riyo va boshqa narsalardan ogoh bo'lishga chaqirish haqidagi bob);

باب ما جاء من الوعيد في تفسير القرآن بالرأي والجرأة على ذلك ومراتب المفسرين (Qur'onni o'z ra'yi bilan sharhlash va bunga jur'at qilish xususida ogohlantiruvchi rivoyatlar va mufassirlarning darajalari haqidagi bob);

باب معنى قول النبي صلى الله عليه وسلم: «إن هذا القرآن أنزل على سبعة أحرف، فاقرؤوا ما تيسر منه» (Nabiy sollallohu alayhi vasallamning "Albatta Qur'on yetti harfda nozil bo'lgan, o'zingizga muyassar bo'lganini o'qing" degan gaplarining ma'nosi haqidagi bob) va boshqalar.

Umar Nasafiy muqaddimada Qur'on ilmlaridan zarurlarini, ayniqsa, Qur'on tafsirini o'qishga kirishgan kishi uchun kerak bo'ladigan asosiy mavzularni keltirgan. Bu mufassirning o'ziga xos uslubi bo'lib, o'quvchini jarayonga tayyorlash va ma'noni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shunday mavzulardan biri Qur'oni karimning ojiz qoldiruvchi kitob ekanligi haqidagi alohida bobdir. باب ذكر نكت في إعجاز القرآن، وشرائط المعجزة وحقيقتها (E'joz al-Qur'on borasida kelgan gaplar, mo'jizaning shartlari va uning haqiqati) deb nomlaydi. Dastlab mo'jiza nima ekanligi to'g'risida

qisqacha tushuncha berib shunday deydi: “Mo’jiza Payg’ambar sollallohu alayhi vasallamlarning ro’stgo’yiligiga dalolat qiluvchi odatda inson qudrati yetmaydigan ish bo’lib, bashar uni qilishdan ojiz bo’lganligidan shunday nomlangan” [1:20b].

Umar Nasafiy “at-Taysir fi-t-tafsir”ga ham o’ziga xos muqaddima yozadi. “al-Akmal al-atval”dagidan farqli o’laroq bu anchagina qisqa va unda keltirilmagan ba’zi ilmlar haqida so’z yuritadi. Asarni basmala va Payg’ambar sollallohu alayhi va sallamga salovat aytish bilan boshlaydi. So’ngra, Allohga hamd aytib Qur’oni karimning yuzta ism va sifatlarini sanab o’tadi va quyidagicha yozadi: “Bular Qur’onning yuzta ismi bo’lib, un (Qur’on)da ularning zikri va bayoni kelgan. Alloh taolo mana shular bilan Qur’onni nomlaydi” [6:158]. Shuningdek, Umar Nasafiy tafsir va ta’vil tushunchalari borasidagi o’z fikrini hamda ulamolarning qarashlarini keltirib o’tadi. Masalan, u shunday yozadi: “Ulamolar tafsir va ta’vilning ta’rifida qisqa va uzun bayon qiluvchilardan iboratdir. Biz o’rta yo’lni tutamiz va shunday deymiz: Tafsir – oyatning nozil bo’lishi, uning xususiyati, tarixi, nozil bo’lish sabablari, ularda iroda qilingan qavmlar haqidagi ilmdir. Tafsir qilishda faqatgina (rivoyatlarni) eshitish bilangina gapirish mumkin. Ta’vil – oyatni o’zidan oldingi va keyingi oyatga muvofiq bo’lgan ehtimoliy ma’noga qaytarishdir” [6:160].

Umar Nasafiy Qur’oni karimni tafsir va ta’vil qilish joizligi to’g’risida xulosa beradi va bir qancha ulamolar, xususan, Abu Mansur Moturidiyning quyidagi so’zlarini dalil qilib keltiradi: “Imom Abu Mansur al-Moturidiy rohimahulloh aytadi: “Ba’zi salaflar bu (Qur’onni tafsir qilish joizligi haqidagi) habarning sobitligini inkor qilishdi. Qur’onni tafsir qilish va undan so’z ochish joizligi ulamolar tomonidan sobit bo’lgandir. Chunki insonlar undan ko’zlangan ma’noni bilishlikka ehtiyojmandirlar. Shu sabab ular tafsir qilishning to’g’riligini tasdiqlashib ta’vil borasida ixtilof qilishdi” [6:168]. Shu tariqa Qur’oni karimni tafsir qilishlik joizligiga dalillar keltiradi, ulamolarning tafsir va ta’vil tushunchalari haqidagi fikrlarini naql qiladi.

Bu ikki tafsirning yana bir farqli jihati Umar Nasafiyning suralarni sharhlashda turlicha yondoshganligidir. Misol uchun, “at-Taysir fi-t-tafsir” asarida oyatlarning fihiy, aqidaviy, nozil bo’lish sabablari, qiroatlar, lug’at va boshqa jihatlariga e’tibor berish bilan birga ko’proq ular

ishora qiladigan hikmatlarga urg’u berganligini ko’rish mumkin. Bu xususiyati bilan uni ishoriy tafsirlar turkumiga ham kiritishadi. Masalan, Fotiha surasining tafsirida shunday yozadi: “U (Fotiha surasi)da alifbo harflaridan yigirma ikkitasi qatnashgan va Nabiy sollallohu alayhi va sallamning vahiydan keyin yashagan yillari ham yigirma ikkitadir. Bu sura shu yillarda Alloh taolo u zotga vahiy qilgan narsalar ma’nosining hammasini o’zida jamlagan. Unda yettita harf ishtirok etmagan bo’lib ular quyidagilar: ث, ج, خ, ز, ش, ظ, ف.

Ba’zi rivoyatlarda shunday deyiladi: Undagi hikmat shuki, albatta ث harfi ثور (halokat) so’zidan, ج harfi جحيم (jahannam) so’zidan, خ harfi خوف (xavf) so’zidan, ز harfi زقوم (zaqqum) so’zidan, ش harfi شقاوة (baxtsizlik) so’zidan, ظ harfi ظلمة (zulmat) so’zidan, ف harfi فراق (ayriliq) so’zi bilan bog’liq. Ushbu suraga ishonuvchi, hurmat va ehtirom bilan o’quvchi kishi mana shu yettita narsadan omonda bo’ladi” [6:224].

Bundan tashqari, Fotiha surasining tafsirida oyatlar ishora qiladigan ma’nolar haqida shunday yozadi: “Bu sura yetti oyatdan iborat bo’lib, Jahannam eshiklari ham yettitadir. Kim ushbu surani o’qisa Jahannamning yetti eshigi uning uchun yopiladi. Bu eshiklardan har birining kengligi osmon va yetti qavat yerning kengligichadir. Ushbu yerlar binosining gilami ham yettita. Uning ahli bo’lgan odam bolalari va ularning qorindagi holatlari ham yettitadir, ya’ni ular سلالة من طين (loy mag’zi)dan, so’ngra نطفة (nutfa – bir tomchi suv) dan, so’ngra علقة (laxta qon)dan, so’ngra مضغة (bitgan-bitmagan bir chaynam go’sht)dan, so’ngra عظام (suyak)dan, so’ngra لحم (go’sht)dan yaratildilar va keyin boshqa ko’rinishda xalq qilinadi. Inson tug’ilgan paytida chaqaloq, so’ngra yosh bola, so’ngra yosh yigit, so’ngra balog’atga yetgan, so’ngra yosh kishi, so’ngra o’rta yoshli, so’ngra esa qari kishi bo’ladi [6:240]”. Yuqoridagi misollardan ko’rish mumkinki, Umar Nasafiy ushbu asarida oyatlarning juda ko’plab ma’nolarga ishora qilishini ko’rsatib bergan va bu narsa tafsirning ahamiyatini yanada orttirgan.

Alloma “al-Akmal al-atval” asarini yozish asnosida fihiy jihatlariga ko’p e’tibor qaratgan. Masalan, Fotiha surasining tafsirini besh bobga ajratadi. Ulardan birinchisida uning fazilati va ismlari haqidagi qarashlar bayon qilinadi. Shu bilan birga bu bobda yettita masala haqida so’z yuritiladi. Shulardan ikkinchi masala suralar va Alloh taoloning go’zal ismlarining ba’zisi

ba'zidan fazilatligi borasidagi ulamolarning turli xil fikrlariga bag'ishlanadi. Daʼslab bir guruh ulamolarning qarashlarini keltirib shunday deydi: "Bir qavm aytadi: "Ba'zisi ba'zidan afzal emas. Chunki kalom Alloh taoloning kalomi va ismlari ham xuddi shunday. Ular orasida o'zaro afzallik yo'q". Shayx Abul Hasan Ash'ariy, Qozi Abu Bakr ibn Toyyib, Abu Hotam Muhammad ibn Hibbon al-Bustiy va faqihlardan bo'lgan bir jamoa ham mana shu fikrni bildirib o'tishgan" [1:29a].

Is'hoq ibn Rohavayh, Abu Bakr ibn Arabiy va bir guruh mutakallimlar bu to'g'rida boshqacha fikrda ekanliklarini aytib o'tadi. Ular Abu Said al-Muallo va Ubay ibn Ka'blardan kelgan ushbu hadisni dalil qilishadi: "U aytadi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam mendan: "Ey Ubay! Seningcha, Alloh taoloning kitobida qaysi oyat eng ulug'i?" deb so'radilar. Men: "Ey Rasululloh! Alloh va Rasuli eng bilguvchi", dedim. Bas aytdilar: "Ey Ubay! Allohning kitobidagi eng buyuk oyat qaysiligini bilasanmi. Men: "الله لا إله إلا هو الحي" dedim. U zot ko'ksimga urib: "Alloh senga ilm olishni oson qilsin, ey Abu Munzir", dedilar. So'ngra Umar Nasafiy o'z fikrini shunday bayon qiladi: "Albatta fazilatligi ma'noning ajoyib va ko'pligidan. Sifat jihatidan emas. Mana shu haqdir" [1:30a].

Demak ushbu fikrdan ko'rish mumkinki, Umar Nasafiy ikkala guruh olimlarining qarashlarini uyg'unlashtirib qisqa va lo'nda xulosa bergan.

Umar Nasafiy Fotiha surasi sharhidagi ikkinchi bobda yigirmata masalani keltirib o'tadi. Jumladan, ushbu sura yettita oyatdan iboratligi, makkiy yoki madaniyligi, basmala uning bir oyati yoki unday emasligi, uni namozda o'qishlik hukmi kabi masalalar borasidagi ulamolarning qarashlarini va ba'zi o'rinlarda o'z fikrlarini bildirib o'tadi. Masalan, beshinchi masalada namozda Fotihani o'qish vojibligi to'g'risidagi faqihlarning ixtiloflarini shunday keltiradi: "Ulamolar namozda Fotihani o'qish vojib ekanligida ixtilof qilishdi. Molik va shogirdlari: "Uni o'qishlik imom va tanho o'quvchi uchun har bir rakaatda majburiydir".

Hasan Basriy, basraliklarning aksari va Mug'iyra ibn Abdurrahmon al-Maxzumiy al-Madaniylar aytadi: "Agar Ummul Qur'on (Fotiha surasi)ni namozda bir marta o'qigan bo'lsa, unga joiz bo'lib, qayta o'qimaydi. Chunki u Ummul Qur'on o'qilgan namoz hisoblanadi va Rasululloh alayhissalomning: "Ummul Qur'on o'qilmagan

namoz namoz emas" degan hadislariga binoan tugal namoz bo'ldi".

Abu Hanifa, Savriy va Avzoiylar aytadi: "Agar u (Fotiha surasi)ni namozining hammasida qasddan tark qilsa va boshqasini o'qisa joizdir".

Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasan aytadi: "Uning eng ozi uch oyat yoki qarz oyati (Baqara surasining 282-oyati) kabi bir uzun oyatdir".

Umar Nasafiy yuqoridagi turlicha fikrlarning sababini izohlab shunday deydi: "Men aytamanki: "(Ushbu hadisning) namozning barcha rakatlarida o'qimagan kishi uchun namoz yo'q degan ehtimoli mavjud. Hadisga ko'ra mana shu (Namozning barcha rakaatlarida Fotihani o'qish kerakligi) to'g'ridir. U (hadis)ning (namozdagi) rakatlarning ko'prog'ida o'qimagan kishi uchun namoz yo'q degan ehtimoli ham bor. Mana shu (ehtimollar) ixtilof sababidir. Vallohu a'lam" [1:32a].

Tafsirlar orasidagi o'ziga xos farqli jihatlardan yana biri Umar Nasafiy suralar sharhiga kirishish uslubining turlichaligidir. Misol uchun "at-Taysir fi-t-tafsir" asarida suralarga go'zal balog'iy uslub, ya'ni براعة الإستهلال (Mohirona kirish) usulida kirish qiladi. Bu suralarning aksarida kuzatiladi. Masalan, Baqara surasi tafsiriga quyidagicha iboralar bilan muqaddima qiladi: "Kitob (Qur'on)ni shubhasiz holda nozil qilgan Alloh, mo'min va taqvodorlarga g'ayb bilan lutf qilgan Rahmon hamda xatokorlarga aybini yashirish bilan marhamat qilgan Rohimning ismi bilan boshlayman" [6:183]. Baqara surasining daʼslabki uch oyatiga qarasak, unda uchraydigan Kitob, shubhasiz, mo'minlar, taqvodorlar, g'ayb kabi so'zlarni ajoyib tarzda basmala bilan birlashtirib, o'zgacha muqaddima qiladi. U oyatlar esa quyidagicha: **"Alif Lom Mim. Bu kitobda shak-shubha yo'q, u taqvodorlarga hidoyatdir. Ular g'aybga iymon keltirurlar,..."** (Baqara surasi 1,2,3-oyatlar).

Bunga yana bir misol, Furqon surasining tafsiriga shunday kirish yozadi: "Olamlarga ogohlantiruvchi bo'lsin deb bandasiga Furqonni nozil qilgan Alloh, kofirlarga og'ir bo'lgan qiyomat kunida haqiqiy mulk egasi Rahmon, osmonda burjlar qilgan va unda chiroq (Quyosh) hamda nur sochuvchi oyni barpo etgan Rohimning ismi bilan boshlayman" [6:187]. Furqon surasining 1,2- va 61-oyatlarida shunday keladi: **"Odamlarga ogohlantiruvchi bo'lsin uchun bandasiga Furqonni nozil qilgan Zot barakatli, ulug'dir. U osmonlaru erning mulki Unga xos bo'lgan O'ziga farzand tutmagan, mulkida sherigi**

bo'lmagan, harbir narsani o'lchov ila o'lchab yaratgan Zotdir. Osmonda burjlar qilgan va unda chiroq va nur sochguvchi oy qilgan Zot barokatli-buyuk bo'ldi". Umar Nasafiy yozgan kirish so'zi bilan yuqoridagi uchta oyat mazmunan bir-biriga juda yaqin. Ulardagi "Odamlarga ogohlantiruvchi bo'lsin uchun bandasiga Furqonni nozil qilgan", "osmonlaru yerning mulki Unga xos bo'lgan" va "Osmonda burjlar qilgan va unda chiroq va nur sochguvchi oy qilgan" kabi jummalarni basmala bilan qo'shib mo'jaz muqaddima yasaydi.

Umar Nasafiy "at-Taysir fi-t-tafsir" kitobida suralarga muqaddima qilishda yana bir tartibga amal qiladi. Suralarga qisqacha kirish qilgandan so'ng, uning fazilatiga doir hadislar, uning makkiy yoki madaniy ekanligi hamda u o'z ichiga olgan oyat, so'z va harflar sonini keltirib o'tadi. Bunga misol Mulk surasi tafsirida uning fazli borasidagi quyidagi rivoyatlarni keltiradi: "Ubay ibn Ka'b roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qiladi. U zot shunday marhamat qildilar: "Kim "تَبَارَكَ الَّذِي بِيَدِهِ الْمُلْكُ" surasini o'qisa, go'yo Qadr kechasini bedor o'tkazgandek bo'ladi".

Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan Mulk va "الم، تَنْزِيلٌ" Sajda suralarini o'qimasdan uxlamas edilar".

Shundan so'ng, yuqorida ta'kidlaganimizdek ushbu suraning makkiy ekanligi va o'ttiz oyat, uch yuz o'ttiz uch so'z va bir ming uch yuz yigirma bir harfdan iboratligini zikr qiladi [6:501,502].

Shu o'rinda aytib o'tish joiz bo'lgan mulohaza shuki, Umar Nasafiyning suralar fazilati borasida keltirgan ko'pgina hadislar mavzu, ya'ni to'qima hadislar bo'lib, ularning deyarli barchasi Ubay ibn Ka'b roziyallohu anhuga nisbat berilgan. Yuqorida Mulk surasi fazilati to'g'risida zikr qilingan ikki rivoyatdan birinchisi ham aynan shu turga mansub hadis hisoblanadi.

Umar Nasafiy "at-Taysir fi-t-tafsir" asaridan farqli o'laroq "al-Akmal al-atval"da suralar sharhiga tamoman boshqa uslubda kirish qiladi. Ya'ni tafsirini boshlamog'chi bo'lgan sura bilan undan oldingi suraning o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-biriga o'xshash jihatlarini ta'kidlab o'tadi. Bu metodni suralarning aksarida kuzatish mumkin. Misol uchun, Maryam surasining muqaddimasida shunday yozadi: "Aytamizki, albatta, bu sura bilan undan oldin o'tgan suraning o'zaro nisbati o'sha surada zikr qilindi. Ushbu uch sura har biri javobiy holatni o'z ichiga olishi bilan mushtarakdir. Bani Isroil (Isro) surasi, oldin o'tgani kabi, Muhammad

(sollallohu alayhi vasallam)ning tunda qilgan sayrini, Kahf surasi qavmning uch yuz yil va undan ham ko'proq muddat uyquda qolib ketganligi va Maryam surasi otasiz bola dunyoga kelganligi voqeasini qamrab olgan. Bundan tashqari, Alloh taolo u sura (Kahf)ni mutashobih oyat bilan yakunladi va u: "فَمَنْ كَانَ يَرْجُوا لِقَاءَ رَبِّهِ"oyatidir. Shuningdek, bu sura (Maryam)ni ham mutashobih bo'lgan oyat bilan boshladi. U: "وَكَيْفَ"oyatidir".

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Umar Nasafiy ijodiga oid bo'lgan bu ikki yirik tafsir bir-birini tamomila takrorlamaydi va ba'zi ma'lumotlar mushtarak bo'lsa-da, oyatlarni sharhlashdagi uslub boshqa-boshqa ekanligi ma'lum. Shu bilan birga, ushbu asarlar Movarounnahr diyorida tafsir sohasining yangi bosqichga ko'tarilishida o'ziga xos o'ringa ega.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Al-Hofiz Najm ad-Din Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Akmal al-atval. 4 juz. – Qohira: Dor al-kutub val-vasoiq al-qavmiyya. Qo'lyozma. № 37.
2. Al-Hofiz Najm ad-Din Abu Hafs an-Nasafiy. Al-Akmal al-atval. – Qohira: Dor al-kutub val-vasoiq al-qavmiyya. Qo'lyozma. № 38.
3. Muratov A. Abu Hafs Nasafiy "Taysir fi-t-tafsir" asarining manbashunoslik tadqiqi: disser.. – T., 2021. – 153 b.
4. Muhammad ibn Ahmad ibn Abubakr al-Qurtubiy. Al-jomi li ahkom al-Qur'on. Muhammad Rotib Poshsho. Qo'lyozma. № 46159.
5. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 517 б.
6. Mohir Adib Habbush. At-taysir fit-tafsir ta'lif al-imom Abu Hafs an-Nasafiy. I juz. – Istanbul: Dor al-lubab, 2019. – 600 b.
7. Shamsiddin al-Qurtubiy. Al-Jomi li-ahkom al-Qur'on. 24 juz. – Bayrut: Muassasa ar-Risala, 2006.
8. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. 6-жуз. – Т.: "Ҳилол-Нашр" нашриёти, 2017. – 504 б.
9. Jaloliddin as-Suyutiy. Al-Itqon fi ulum al-Qur'on. 2 juz. Markaz dirosatul Qur'aniyya. – Bayrut: Dor al-fikr, 2009.